ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

Professor Ibodulla Mirzayev ilmiy maktabining shakllanishi va taraqqiyoti 7

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ ПАНЖИЕВИЧ
Инициальные консонантные кластеры в современном узбекском языке: инвентарь, структурные типы и статистическая представленность (в сопоставлении с русским языком) 13

UMURQULOV ZAFAR BEKPO‘LATOVICH
Til – madaniyat ko‘zgusi 18

IBRAGIMOV JASURBEK TO‘LQINJON O‘G‘LI
Epitet tematikasi (“Alpomish” dostoni misolida) 23

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Морфологические категории арабского языка в когнитивной интерпретации эпохи NAHDA 27

SULEYMANLI ATILLA NAZIM O‘G‘LU
Ozarbayjon ma’rifatparvarligi va o‘zbek jadidchiligida milliy o‘zlikni anglash g‘oyasining genezisi 33

SAMANDAROVA GULHAYO ERKIN QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilining rivojlanish tendensiyalari 42

QURBANBAYEVA NILUFAR ILXAMOVNA
O‘zbek va ingliz tillarida olqish, duo va tilak so‘zlarining lingvokulturologik xususiyatlari 47

KARIMOV ABDULATIF ABDUG‘AFOROVICH
Til tizimini maydonlar orqali tushunish g‘oyasining vujudga kelishi 52

XURSANOV MAXMUD G‘AYRAT O‘G‘LI
Termiz shahri ko‘cha nomlarining yasalish xususiyatlari 59

МУНДАРИЖА

TURG‘UNOVA MAFTUNAXON JAMOLDIN QIZI
Topishmoqlarni tasniflash muammolari 63

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
«Vaqt» konseptining badiiy ifodalanishi 67

JUMANOVA ORZIGUL
Cho‘lponning «Kecha va kunduz» romanidagi maqollarning
inglizcha tarjimalarida lingvomadaniy konseptlarning ifodalanishi 71

IKROMOVA CHAROSXON
G‘afur G‘ulom «Shum bola» asaridagi monosemantik
va polisemantik so‘zlar tahlili 75

QURBONOVA KAMOLA ABDURAHMONOVNA
Kognitiv tilshunoslikda “Figura-fon” tamoyili haqida 78

ADABIYOTSHUNOSLIK

OTAQULOVA DILDORA OYBEK QIZI
Tesha Saydaliyev she'riyatida mavzu va g‘oya uyg‘unligi 81

ЭШОНҚУЛОВ ИЛҲОМ АБДУСАЛОМОВИЧ
Мирсиддиқхон Ҳашмат тазкираларининг илмий
аҳамияти ва адабий қиймати 84

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 7
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

TERMIZ SHAHRI KO'CHA NOMLARINING YASALISH XUSUSIYATLARI

Xursanov Maxmud G'ayrat o'g'li,
Termiz davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti

Til faqatgina aloqa-aralashuv vositasi bo'lib qolmay, balki xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mustahkam mujassamlashtiruvchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim ijtimoiy vosita hisoblanadi. Ana shunday milliy va madaniy xususiyatlarni lisoniy sathda yaqqol ifodalovchi birliklardan biri urbanonimlar bo'lib, ular muayyan bir hududning tarixiy taraqqiyoti, etnik tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda madaniy rivojlanishi to'g'risida rad etib bo'lmas qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Toponimikaning tarkibiy qismi hisoblangan va bevosita shahar hududidagi obyektlarning nomlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi soha urbanonimika deb yuritiladi[1]. Urbanonimlar tarkibiga shahar ichidagi ko'chalar, maydonlar, xiyobonlar, istirohat bog'lari, mahallalar, tor ko'chalar va boshqa ko'plab shahar ichki obyektlarining nomlari kiritiladi[2]. Ushbu nomlar tizimi va ularning lingvistik tabiati jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy ravishda bog'liq holda rivojlanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizning barcha hududlarida bo'lgani kabi urbanonimlar tizimida ham tub va sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Sobiq mustabid tuzum va mafkuraning tazyiqi ostida qo'yilgan, xalqimizning milliy tabiatiga yot bo'lgan nomlarning aksariyati mustaqillik yillarida butunlay bekor qilindi hamda ularning o'rniga milliy qadriyatlarimiz, tarixiy buyuk shaxslarimiz, milliy o'zlikni anglash va istiqlol g'oyalarini yorqin ifodalovchi yangi lisoniy birliklar tatbiq etildi. Bu keng ko'lamli lingvomadaniy jarayon janubiy sarhadimizdagi qadimiy va navqiron Termiz shahri urbanonimlarida ham yaqqol va tizimli tarzda kuzatiladi.

Termiz Markaziy Osiyoning va jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, ikki ming besh yuz yildan ortiq chuqur va boy tarixga ega. Ushbu shahar urbanonimlarining uzoq o'tmishdagi tarixiy taraqqiyoti, o'ziga xos boy madaniy merosi hamda bugungi kunda kechayotgan zamonaviy shaharsozlik va ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini har tomonlama aks ettiradi. Shu jihatdan olganda, Termiz shahri ko'cha nomlarini lisoniy jihatdan tizimli tadqiq etish, ularning shakllanish hamda yasalish xususiyatlarini ilmiy asosda aniqlash o'zbek onomastikasining hamda urbanonimikasining dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu ilmiy maqolada Termiz shahridagi rasmiy ro'yxatga olingan 50 ta ko'cha nomlarining lisoniy materiali tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Tadqiqot davomida toponimik obyektlar tahlilida keng qo'llaniladigan bir qator zamonaviy lisoniy metodlardan foydalanildi. Xususan, ko'cha nomlarining strukturaviy tuzilishi va morfologik-sintaktik xususiyatlarini aniqlashda komponentlar tahlili va tarkibiy qismlarga ajratish usullari qo'llanildi. Urbanonimlarning leksik-semantik guruhlarini tizimlashtirish maqsadida semantik tasniflash hamda lisoniy tavsiflash metodlariga tayanildi. Shuningdek, shahardagi nominal birliklarning yasalish usullari va modellari orasidagi nisbatni aniq ko'rsatish uchun statistik tahlil metodidan keng foydalanildi. Mazkur metodlar to'plangan ma'lumotlarni guruhlash, ularning o'zbek tilining ichki qonuniyatlari asosida yasalish darajasini aniqlash va xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Olingan lisoniy ma'lumotlar va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Termiz shahri ko'cha nomlari o'zining semantik xususiyatlariga ko'ra rang-barang va tizimli xarakterga ega. Shahar urbanonimlarining shakllanishida antroponimlar, geografik terminlar, tabiat hodisalari hamda ijtimoiy-ma'naviy tushunchalar yetakchi o'rin tutadi. O'tkazilgan statistik tahlillar natijasida Termiz shahridagi ko'cha nomlarining semantik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha aniqlandi[3]:

a) tarixiy shaxs va atoqli insonlar nomlari (Antroponimlar): 22 ta ko'cha (44,0%);

b) milliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy g'oyalar: 10 ta ko'cha (20,0%);

c) geografik obyektlar va oykonomik nomlar: 5 ta ko'cha (10,0%);

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 5.
[2] Eyvazova R. Baki urbanonimleri. – Baki: Mars print, 2010. – B. 1.
[3] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. –B. 121.

d) tabiat, flora va fauna bilan bog'liq nomlar: 3 ta ko'cha (6,0%);

e) kasb-hunar va ijtimoiy faoliyat turlari: 6 ta ko'cha (12,0%);

f) boshqa turli xil nominatsiyalar: 6 ta ko'cha (12,0%).

Ushbu statistik ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, shahar urbanonimik tizimida tarixiy shaxslar va atoqli allomalar nomini abadiylashtirish tamoyili eng yuqori ulushni (44%) tashkil etadi. Strukturaviy tuzilishi jihatidan Termiz shahri ko'cha nomlari uchta asosiy guruhga bo'linadi: sodda ko'cha nomlari (27%), qo'shma ko'cha nomlari (48%) hamda birikmali urbanonimlar (25%). Yasalish usullari bo'yicha tahlil qilinganda esa transonimizatsiya usuli 40%, semantik usul 20%, sintaktik usul 25% hamda kompozitsiya (qo'shish) usuli 15%ni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.

Termiz shahri ko'cha nomlarining leksik-semantik jihatdan tahlil qilinishi ularning har birining zamirida o'ziga xos nominatsion motiv yotganligini ko'rsatadi. Birinchi navbatda, antroponimlar asosida shakllangan urbanonimlarni tahlil qilish lozim. Ushbu guruh tarkibiga xalqimizning buyuk tarixiy qahramonlari, davlat arboblari, jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalar va taniqli adiblar kiritilgan. Misol tariqasida, Amir Temur ko'chasi, Alisher Navoiy ko'chasi, Abu Rayhon Beruniy ko'chasi, Jaloliddin Manguberdi ko'chasi, At-Termiziy ko'chasi, Zahiriddin Muhammad Bobur ko'chasi kabilarni keltirish mumkin. Bu nomlarning berilishi orqali jamiyatda tarixiy xotirani tiklash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadi ko'zlangan. Ayniqsa, mazkur hududdan yetishib chiqqan buyuk muhaddis alloma Abu Iso Muhammad at-Termiziy nomining ko'chalarga berilishi mahalliy xalq ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Milliy qadriyatlar va mustaqillik g'oyalarini ifodalovchi urbanonimlar tizimda ikkinchi o'rinda turadi. Mustaqillikdan keyingi davrda ko'cha nomlarining sezilarli qismi milliy o'zlikni va yangi jamiyat qurish tamoyillarini aks ettiruvchi leksik birliklar orqali atala boshlandi. Bunga Mustaqillik, Istiqlol, Do'stlik, Taraqqiyot, Yangi O'zbekiston kabi ko'cha nomlari yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu turdagi nomlar xalqning bugungi kundagi ijtimoiy-siyosiy intilishlarini, tinchlik, hamjihatlik va kelajakka bo'lgan mustahkam ishonchini lisoniy vositalar yordamida muhrlab qo'yish vazifasini bajaradi.

Geografik obyektlar asosidagi urbanonimlar guruhiga daryo, tog', voha, shahar va boshqa toponimik hudud nomlari asosida shakllangan ko'cha nomlari kiradi[1]. Termiz shahrining tabiati va geografik joylashuvi bevosita ushbu hududdan oqib o'tuvchi yirik daryolar va voha nomi bilan bog'liq. Misol tariqasida Surxon ko'chasi va Amudaryo ko'chasi nomlarini keltirish mumkin. Bunday nominatsiya usuli shaharning tabiiy-geografik o'rnini ko'rsatish bilan bir qatorda hududiy geografik xotirani saqlash, odamlarning makon va makoniy obyektlar haqidagi tasavvurlarini boyitishga imkon beradi.

Tabiat bilan bog'liq urbanonimlar guruhiga esa asosan tabiat obyektlari, o'simliklar va gullar, shuningdek, turli estetik tushunchalar asosida yuzaga kelgan nomlar kiritiladi. Bunga Gulzor ko'chasi, Lolazor ko'chasi, Bog'ishamol ko'chasi, Chinor ko'chasi, Navbahor ko'chasi kabi lisoniy birliklar misol bo'ladi. Mazkur urbanonimlar o'zining ijobiy bo'yoqdorligi, estetik hamda poetik xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ular shaharga o'zgacha ko'rk va iliqlik bag'ishlash, uning yashillik va go'zallik maskani ekanligini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Endi Termiz shahri ko'cha nomlarining strukturaviy (tuzilish) xususiyatlarini chuqurroq ko'rib chiqamiz. Shahar urbanonimlari morfologik va sintaktik tarkibiga ko'ra turli-tumandir: 1. Sodda urbanonimlar. Bunday turdagi ko'cha nomlari o'z tarkibida faqatgina birgina leksemani (so'z asosini) jamlaydi. Bunga Surxon, Gulzor, Baxt, Chinor kabi nomlar misol bo'ladi. Tahlillar ko'rsatishicha, ularning foiz hisobidagi ulushi taxminan 27%ni tashkil etadi. Bu nomlar ixcham va talaffuz uchun qulay ekanligi bilan ajralib turadi. 2. Qo'shma urbanonimlar. Bu turdagi urbanonimlarimiz tarkibiy jihatdan ikki yoki undan ortiq mustaqil komponentning birikishidan tashkil topadi, biroq yaxlit bir ma'noni ifodalaydi. Bunga Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Beruniy kabi tarixiy shaxslarning ism-sharifiari asosida hosil bo'lgan nomlar kiradi. Ularning shahar bo'yicha foiz hisobidagi ulushi eng yuqori bo'lib, taxminan 48% ga tengdir. 3. Birikmali urbanonimlar. Bu turdagi nomlar muayyan sintaktik model (so'z birikmasi) asosida shakllanadi va o'zaro tobe va hokim munosabatdagi so'zlardan tashkil topadi. Misollar: Yangi hayot ko'chasi, Mustaqillik ko'chasi, Barkamol avlod ko'chasi. Foiz hisobida ularning ulushi taxminan 25% ni tashkil qiladi.

Termiz shahri ko'cha nomlarining yasalish xususiyatlari va lingvistik usullarini tahlil qilish onomastika sohasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shahar urbanonimlarining yasalishida quyidagi to'rtta asosiy lisoniy usul yetakchilik qiladi[2]:

1. Transonimizatsiya usuli. Bu usul bir turdagi atoqli otning lisoniy funksiyasi o'zgarib, hech qanday qo'shimchalarsiz boshqa bir turdagi atoqli ot vazifasi-

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 122.
[2] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 26.

ga o'tishi jarayonidir. Termiz shahrini o'rganish jarayonida antroponimlarning urbanonimga ko'chishi juda kuzatildi. Masalan: Navoiy – Navoiy ko'chasi, Bobur – Bobur ko'chasi, Beruniy – Beruniy ko'chasi. Shahardagi umumiy ko'cha nomlarining qariyb 40 foizi aynan ushbu usul asosida shakllangan bo'lib, bu o'zbek tili onomastik tizimining boy imkoniyatlaridan dalolat beradi.

2. Semantik usul. Umumiy va turdosh ma'noli so'zlarning ma'no torayishi yoki ko'chishi natijasida atoqli otga, ya'ni muayyan obyekt (ko'cha) nomiga aylanishi semantik yasalish hisoblanadi. Termiz shahrida Baxt, Do'stlik, Taraqqiyot kabi mavhum va ijobiy ma'noli so'zlar ushbu usul yordamida ko'cha nomiga aylantirilgan. Foiz hisobida ularning taxminiy ulushi 20% ni tashkil etadi.

3. Sintaktik usul. So'zlarning o'zaro birikuvi va barqaror birikmalar hosil qilishi asosida yangi nomlarning yuzaga kelishidir. Misol tariqasida: Yangi O'zbekiston, Mustaqillik shoh ko'chasi, Yoshlar ko'chasi kabi ob'yektlarni keltirish mumkin. Foiz hisobida ushbu usulning ulushi taxminan 25% ga teng bo'lib, u shaharsozlikning yangi bosqichlarida keng qo'llanilmoqda.

4. Kompozitsiya usuli. Ikki yoki undan ortiq mustaqil komponentning va asosning o'zaro qo'shilishidan korelyativ yangi so'z-komponent hosil bo'lishi usulidir. Termiz shahrida Gulbahor, Bog'ishamol, Navro'zobod kabi chiroyli shakllangan qo'shma toponimik birliklar ushbu usul mahsulidir. Foiz hisobida ularning shahar ichidagi ulushi taxminan 15%ni tashkil qiladi.

Lisoniy materiallarni o'rganish jarayonida Termiz shahri urbanonimlarida quyidagi to'rtta asosiy motivatsiya turlari va omillari mavjudligi aniqlandi[1]. Birinchisi, tarixiy motivatsiya bo'lib, u ko'chalarni tarixiy shaxslar, xalq qahramonlari va unutilmas voqealar bilan bog'liq holda nomlashda ko'rinadi (masalan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi). Ikkinchisi, madaniy motivatsiya bo'lib, u milliy bayramlar, urf-odatlar va qadriyatlarni o'zida ifodalaydi (masalan, Navro'z, Do'stlik). Uchinchisi, geografik motivatsiya hisoblanib, u hududning tabiiy-geografik joylashuvi hamda o'ziga xos iqlimiy, gidrologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir (masalan, Surxon, Amudaryo). To'rtinchisi, mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy motivatsiya bo'lib, u mamlakatda kechayotgan istiqlol, mustaqillik hamda yangilanish taraqqiyot g'oyalarini yorqin aks ettiradi (masalan, Istiqlol, Mustaqillik, Yangi O'zbekiston).

Termiz shahri urbanonimlari tahlili shuni isbotlaydiki, ko'cha nomlari shunchaki harakatlanish uchun mo'ljallangan oddiy manzilni belgilovchi texnik vosita emas, balki xalqning ko'p asrlik tarixini, yuksak madaniyatini hamda boy ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi juda muhim lisoniy va ijtimoiy birlik hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqillik davrida milliy qahramonlar, allomalar va madaniyat arboblari nomlarining shahar urbanonimlariga faol tatbiq etilishi jamiyatda milliy o'zlikni anglash jarayonining qonuniy mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ba'zan shahar amaliyotida chet el so'zlariga ko'r-ko'rona ergashish, milliy til qonuniyatlariga mos kelmaydigan mantiqsiz va asossiz nomlarni qo'llash holatlariga ham duch kelib qolishimiz bugungi kunda onomastika komissiyalari oldida turgan achinarli hol bo'lib, kelgusida bunday nomlarni milliy qonunchilik va til qoidalari asosida chuqur tartibga solishni talab etadi.

Xulosa o'rnida ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Termiz shahri urbanonimlarida antroponimlar asosidagi ko'cha nomlari tizimli ravishda yetakchi o'rinni egallaydi. Shahar ko'chalari tarkibida milliy qadriyatlarimiz, istiqlol g'oyalari hamda mamlakatning zamonaviy mustaqillik tamoyillari juda keng va chuqur aks etgan. Lisoniy yasalish xususiyatlariga ko'ra, ko'cha nomlarining eng asosiy va salmoqli qismi transonimizatsiya usuli orqali atoqli otlarning ko'chishi natijasida shakllangan. Strukturaviy jihatdan tahlil qilinganda esa, qo'shma va birikmali urbanonimlar oddiy nomlarga qaraganda miqdor jihatidan yaqqol ustunlik qilishi aniqlandi.

Termiz shahri urbanonimik tizimi hududning o'ziga xos tarixiy, madaniy-ma'rifiy hamda ijtimoiy taraqqiyot yo'lini lisoniy sathda ko'rsatib beruvchi jonli va nihoyatda muhim lingvistik manbadir. Shahar ichidagi ushbu nominal birliklarni lingvistik hamda onomastik jihatdan ilmiy o'rganish o'zbek onomastikasi qonuniyatlarini boyitishda, shahar tilshunosligi (urbanolingvistika) sohasini yangi bosqichga ko'tarishda hamda kelajakda shaharlarda toponimik obyektlarga nom berish madaniyatini to'g'ri shakllantirishda beqiyos ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Ushbu maqolada Termiz shahri urbanonimlari tarkibidagi ko'cha nomlarining yasalish xususiyatlari, leksik-semantik guruhlari, strukturaviy tuzilishi va nominatsion motivlari atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot davomida shahar ko'cha nomlarining shakllanishi va tizimga kelishida tarixiy, madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda geografik omillarning o'rni va ahamiyati aniqlandi. Shuningdek, urbanonimlarning morfologik, semantik hamda sintaktik yasalish usullari aniq lingvistik va statistik ma'lumotlar asosida atroflicha yoritildi. Tadqiqot natijalari Termiz shahri urbanonimik tizimi milliy qadriyatlar, tarixiy xotira hamda zamonaviy taraqqiyot tamoy-

[1] Каримов С.А., Бўриев С.И. Ўзбек топономикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 79-80.

illarini o'zida to'liq aks ettiruvchi, xalqning o'tmishi va bugungi kunini bog'lovchi muhim lisoniy qatlam ekanligini ko'rsatadi. Olingan tahliliy xulosalar shahar onomastikasini tartibga solish va lingvistik qonuniyatlarini belgilashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Резюме. В данной статье подробно анализируются особенности образования, лексико-семантические группы, структурное строение и номинационные мотивы названий улиц в составе урбанонимов города Термеза. В ходе исследования определяются роль и значение исторических, культурных, социально-политических и географических факторов в формировании и систематизации названий улиц города. Также на основе точных лингвистических и статистических данных подробно освещаются морфологические, семантические и синтаксические способы образования урбанонимов. Результаты исследования показывают, что урбанонимическая система города Термеза является важным языковым пластом, полностью отражающим национальные ценности, историческую память и принципы современного развития, а также связывающим прошлое и настоящее народа. Полученные аналитические выводы служат важной теоретической основой для регулирования городской ономастики и определения её лингвистических закономерностей.

Resume. This article provides a comprehensive analysis of the word-formation characteristics, lexical-semantic groups, structural organization, and motivational bases of street names within the urbanonymy of Termez city. In the course of the study, the role and significance of historical, cultural, socio-political, and geographical factors in the formation and systematization of city street names are identified. Furthermore, the morphological, semantic, and syntactic methods of urbanonym formation are explained in detail based on precise linguistic and statistical data. The research results indicate that the urbanonymic system of Termez is a crucial linguistic layer that fully reflects national values, historical memory, and principles of modern development, thereby connecting the people's past and present. The derived analytical conclusions serve as an important theoretical framework for regulating urban onomastics and establishing its linguistic patterns.